



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 2

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

February 2025

WWW.AJERUZ.COM

TA'LIM VA BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHNI BOSHQARISH
MUAMMOLARI HAMDA IMKONIYATLARI.

Iskandarova Ruxshona Sherali qizi
CHDPU Amaliy psixologiya 2-kurs 23/2-guruh talabasi
ruxshonaiskandarova862@gmail.com

Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li
CHDPU Psixologiya kafedrası o'qituvchisi
olimjonozodqulov30@gmail.com

Аннотация: Эффективное управление системой образования стало основным фактором социально-экономического развития в современное время. В данной статье анализируются основные проблемы в процессе управления образованием и приобретением знаний (нехватка ресурсов, неравномерное применение цифровых технологий, нехватка квалифицированных кадров) и возможности их устранения (искусственный интеллект, платформы дистанционного обучения, инновационные педагогические методы). В исследовании на основе метода сравнительного анализа изучена научная литература, статистические данные и международный опыт. Результаты подчеркивают сложность образовательных проблем и важность технологических инноваций, политических реформ и международного сотрудничества как их решения. Завершается статья практическими рекомендациями, направленными на совершенствование управления образованием.

Ключевые слова: менеджмент образования, приобретение знаний, цифровые технологии, педагогические инновации, управление ресурсами, образовательное неравенство, политические реформы.

Abstract: Effective management of the educational system has become the main factor of socio-economic development in modern times. This article analyzes the main problems in the process of education management and knowledge acquisition (lack of resources, uneven application of digital technologies, lack of qualified personnel) and the possibilities of their elimination (artificial intelligence, distance learning platforms, innovative pedagogical methods). In the research, scientific literature, statistical data and international experiences were studied based on the method of comparative analysis. The results highlight the complexity of educational problems and the importance of technological innovations, political reforms, and international cooperation as solutions to them. The article ends with practical recommendations aimed at improving educational management.

Key words: *educational management, knowledge acquisition, digital technologies, pedagogical innovations, resource management, educational inequality, political reforms.*

Kirish

Ta'lim-inson kapitalini shakllantiruvchi va jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy tizimdir. Biroq, global miqyosda ta'limni boshqarishda uchraydigan muammolar (masalan, qishloq va shahar maktablari o'rtasidagi resurslar tafovuti, o'qituvchilarning malaka darajasining pasligi, eskirgan o'quv dasturlari) samaradorlikni keskin pasaytirmoqda. Ayni paytda, texnologiyalar rivoji va yangicha pedagogik yondashuvlar bu muammolarni bartaraf qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Maqolaning maqsadi-ta'lim boshqaruvi sohasidagi mavjud to'siqlarni aniqlash va ularni raqamli innovatsiyalar, global tajribalar va siyosiy qarorlar orqali hal etish yo'llarini ko'rsatishdir.

Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Ta'lim va tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyotining asosidir. U ijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisligini hamda jamiyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu dastur ta'lim va tarbiyani boshqarishning zamonaviy tizimi va uni boshqarishning asosiy tamoyillari, xususiyatlari Maktabgacha ta'lim tomonidan maktabgacha ta'limni boshqarishning maqsadi, vazifalari, maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarishning vazifasi, boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatlari shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning prinsiplari va unga ilmiy-nazariy yondashuviga etibor qaratiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim muassasalari rahbarlarida mediakompetentlikni rivojlantirish masalasini nazariy asoslarini o'rganib amaliy takliflar ishlab chiqish dolzarblik kasb etadi. Ta'lim menejmentining paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichiga bir nazar tashlasak qadim tarixga egadir, ammo boshqaruv nazariyasi faqat 20-asr boshlarida rivojlana boshladi. "Management" inglizcha so'zdan olinga bo'lib o'zbek tilida boshqaruvni tashkil qilish, rahbarlik qilish ma'nosida tarjima qilinadi. Umumiy rejada menejment boshqaruvni bildiradi, ya'ni u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni

va rahbarlik qilishni) iqtisodiy, moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarda 20-asrning boshlarida ilmiy boshqaruv maktablari evolyutsiyasi boshlangan qulay sharoitlar yuzaga keldi. Demokratik mamlakatda ulkan mehnat bozori paydo bo'ldi. Ta'limning mavjudligi ko'plab aqlli odamlarga fazilatlarini namoyon etishga yordam berdi. Rahbarlikning yangi usullari talab qilindi. 1911 yilda Frederik Teylorning "Printsiplar" kitobi, Bu yangi fan - etakchilik sohasida tadqiqotlar uchun asos yaratdi. Guruh ta'sirining odamlarning mehnatga bo'lgan munosabatini o'zgartirishi mumkinligini isbotladi. Menejer turli sohalar bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi va amalda tasdiqlangan usullarni qo'llashi kerak. Maktab yirik sanoat ishlab chiqarishida hamma joyda paydo bo'ladigan bir qator muhim boshqaruv muammolarini hal qildi.

Menejmentda eng asosiy vazifa - bu odamlar bilan ishlashdir. Menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar shundan dalolat beradiki, u boshqaruv ma'nosini bildiradi turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiy boshqaruvdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagicha: Birinchi farq - bu bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lib, ma'muriy buyruqbozlik xo'jalikni reja asosida olib borish tizimi emasdir. Ikkinchi farq - birinchi farqdan kelib chiqadiki, ya'ni taraqqiy topgan davlatlarda menejment iqtisodiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Uchinchi farq - menejmentni sotsialistik tizim boshqaruvidan farqini oxirgi to'rtta tavsifni birlashtirish asosida aniqlash mumkin. Uni "menejment - bu samarali boshqaruv fani va san'ati"dir deyish mumkin. Bunday boshqaruv bu kabi mehnat bilan shug'ullanuvchilarning yuqori malakasi, ya'ni menejerlar hisobiga, ularning bilimdonligi, faol ijodiy ishi, tashabbuskorligi, fikr yuritishining egiluvchanligi, taktik va strategik masalalarni echishdagi qobiliyati, odamlar bilan bevosita ishlay olishi hisobiga amalga oshadi. Oksford izohli lug'atida menejment tavsifi quyidagi oddiy so'z bilan ifodalangan. Unda "Menejment - bu ma'muriy ishni bajarishdagi alohida qobiliyat va bilimdonlikdir", - deyilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

Hozirgi davrda menejment - boshqaruviga qo'yiladigan turli talablarni, ya'ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to'g'ri yo'naltirish san'ati va fanga qo'yiladigan talablarni qattiq ma'muriy talabsiz belgilangan maqsadning bajarilishini o'zida aks ettiradi. Yuqoridagi sifatlarga qo'shimcha qilib, hozirgi zamon menejmenti taraqqiy topgan davlatlardagi 2 ta tavsifini ham keltirish o'rinlidir: 1-Menejerlik korpusining faoliyatini iste'molchi talabiga mos keladigan yuqori sifatli mahsulot olishga yo'naltirilganligi (menejmentda marketing yondashuvi). 2-Menejer ishini tashkilot jamoa a'zolarining faravonligini oshirishga yo'naltirilganligi (boshqaruv faoliyatini insonparvarligi). Pirovard natijada "Menejment" termini yana bitta, aniqrog'i ikkita keng tarqalgan ma'noga ega. U ko'proq to'plash ma'nosida, barcha tashkilot menejerlar jamoasini yoki oliy menejerlar

korpusini belgilashda ishlatiladi. Bu kabi ma'nolarda "Menejer" so'zi odatda 2 xil faoliyatni: boshqaruvchilar (menejerlar) va ishlab chiqaruvchilar (ishchilar) orasida ma'lum qarama-qarshilik ko'zda tutilganda qo'llaniladi.

Ta'limni boshqarish qonuniyatlari boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular umumiy va xususiyga bo'linadi. Umumiy qonuniyatlar boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiylari ayrim ta'lim tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog'liq. Quyidagilarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sirasiga kiritish mumkin: ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish; boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning, boshqarish sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati, boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.

Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqсадli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir. Boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish sub'ekti va ob'ektining o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruv sohasining boshqaruv ob'ekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Chunonchi, iqtisodiyotni rivojlantirishda 90-yillarning o'rtalaridan ko'zga tashlangan siljishlar mamlakatimizda butun boshqaruv apparatini muayyan o'zgartirishni talab qildi, bu hol 1997 yildan boshlangan ta'lim va kadrlar tayyorlashdagi islohotlar majmuida o'z ifodasini topdi. Natijada ta'lim va uni boshqarish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti talablariga mos tushgan holda barqaror rivojlanish tamoyilini kasb etdi. Boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalash jarayonlarining kuchayishini ham ta'limni boshqarishning umumiy qonuniyatlariga kiritish mumkin. Qonuniyat, birinchidan, boshqaruvda mehnatning bundan keyin ham gorizont va vertikal taqsimotini aks ettiradi, bu hol boshqaruvning rivojlanganligi, boshqariladigan tizimlar ko'lami kengayganligi, yangi funksiyalar va faoliyat turlari paydo bo'lganligi bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, mehnat taqsimoti uning muvofiqlashtirilishini, ya'ni boshqaruv mehnatini kooperatsiyalashda o'z ifodasini topadigan boshqaruv sub'ektlari ishi muvofiqlashtirilishini taqozo qiladi.

Munozara

Agar umumiy qonuniyatlar umuman boshqaruvga xos bo'lsa, xususiy qonuniyatlar boshqaruvning ayrim tomonlari va tizimlari uchun xosdir. Quyidagilarni xususiy qonuniyatlar sirasiga kiritish mumkin: boshqaruv funksiyalarining o'zgarishi, boshqaruv bosqichlari sonining maqbullashtirilishi, boshqaruv funksiyalarining jamlanishi va nazoratning keng tarqalish qonuniyati kabilar. Ta'limni boshqarish funksiyalarining o'zgarish qonuniyatlari boshqaruvning turli ierarxik darajalarida bir

funksiyaning yuksalishi, boshqasining pasayishini bildiradi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi darajasida asosan ta’lim mazmunini qamrab olgan strategik vazifalar (o‘quv rejalari, dasturlari, davlat ta’lim standartlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va boshqalar) hal qilinsa, ta’lim muassasasi darajasida ko‘proq umumiy o‘rta ta’lim maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq taktik masalalar hal etiladi.

Boshqaruv bosqichlari sonini maqbullashtirish qonuniyatlari boshqaruvning ortiqcha bo‘g‘inlarini bartaraf etishni taqozo qiladi, bu hol uning moslashuvchanligi va tezkorligini kuchaytiradi. Ta’limni boshqarish funksiyalarini jamlash shundan iboratki, har bir boshqaruv bosqichi funksiyalarni ko‘proq jamlashga, ya’ni boshqaruv xodimlari sonini ko‘paytirishga intiladi. Barcha mamlakatlarda byurokratik apparat soni oshib borayotgani haqida ma’lumotlar bu qonuniyatni yaqqol namoyish etadi. Nazoratning yoyilganlik qonuniyati qo‘l ostidagi xodimlar soni bilan boshqaruv xodimi tomonidan ularning faoliyatiga samarali rahbarlik qilish va ishlarini nazorat qilish imkoniyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Ta’limni boshqarishning (ham umumiy, ham xususiy) qonuniyatlari ob’ektiv xususiyatga ega bo‘lib, kishilar faoliyatini boshqarish jarayonida amalga oshiriladi.

Ta’limni boshqarish tamoyillarini shakllantirishda boshqaruv qonuniyatlari to‘liq hisobga olinishi kerak. Ta’limni boshqarish tamoyillari - bu boshqaruv tizimi, tuzilmasi, boshqaruvni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalar demakdir. Boshqaruv tamoyillari ham, qonuniyatlar kabi, umumiy va xususiyligga bo‘linadi. Ta’limni boshqarishning umumiy tamoyillari universal tabiatga ega bo‘lib, boshqaruvning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Quyidagilarni ta’limni boshqarishning umumiy tamoyillari sirasiga kiritish mumkin: aniq maqsadga yo‘naltirilganlik, rejalilik, bilimdonlik, intizomlilik, rag‘batlantirish, ierarxiklik (pog‘onalilik). Aniq maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili dasturiy-maqsadli boshqaruvning mohiyati bilan belgilangan bo‘lib, har bir ta’limni boshqarish organi va uning har bir bo‘linmasi oldiga maqsadlar aniq qo‘yilishini ko‘zda tutadi. Bunda maqsad haqiqatan ham erishish mumkin bo‘lgan va iloji boricha aniq-ravshan belgilangan bo‘lishi kerakki, bu ish aqlga muvofiq bo‘lishini ta’minlaydi, xodimlar sa’y-harakatini uning ijrosiga safarbar etadi. Aniq maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili qo‘yilgan maqsadlargina emas, balki ana shu maqsadlarning zarur resurslar bilan nisbati darajasini aniqlashni ham nazarda tutadi. Bunda maqsadlarni ularga erishish uchun zarur bo‘lgan asosiy resurslar bilan bog‘lashni ta’minlashgina emas, balki diqqat-e’tiborni maqsadlarga erishishga xalaqit berayotgan eng zaif bo‘g‘inga qaratish ham kerak bo‘ladi.

Ta’limni rejali boshqarish tamoyili ham dasturiy-maqsadli boshqarish bilan bog‘liq bo‘lib, harakat dasturini tuzish va uni amalga oshirishni ko‘zda tutadi. Rejalilik ish sharoitini normallashtirish va uni ijrochilar o‘rtasida taqsimlashda ijrochilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish va ularga yo‘l-yo‘riq berishda, shuningdek har bir

ishning va umuman dasturning bajarilishini hisobga olish va nazorat qilishni tashkil etishda namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyilning amalda bajarilishi butun boshqaruv tizimi reja asosida tashkil etilishiga olib keladi.

Ta'limdagi resurslar muammolari texnologik yechimlar bilan bartaraf etilishi mumkin. Masalan, "One Laptop per Child" loyihasi Latviya maktablarida internetga kirishni 90%ga oshirgan. Shunga o'xshash, O'zbekistonda "ZiyoNET" platformasini kengaytirish qishloq hududlaridagi talabalar uchun imkoniyatlarni tenglashtirishi mumkin. Biroq, texnologiyalarni joriy qilishda pedagogik kadrlarning malakasi asosiy shart bo'lib qolmoqda. Buning uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari (grantlar, xorijiy stajirovkalar) samarali bo'lishi ko'rsatilgan.

XULOSA

Bilimdonlik tamoyili menejerning boshqaruv ob'ektini bilishini, hech bo'lmaganda, qarorlar qabul qilishda mutaxassislarining foydali maslahatlarini qabul qilishga qodirligini anglatadi. Bilimdonlik tamoyili mehnatning funksiyalar bo'yicha gorizontal taqsimlanishi bilan bog'liq. Boshqaruvning har qanday tizimida har qanday darajada mavjud bo'lishi kerak bo'lgan intizom boshqaruvning ajralmas tamoyili hisoblanadi. Intizom rahbar ko'rsatmalarining, lavozim vazifalarining, yo'riqnomalarning, buyruqlarning va boshqa direktiv hujjatlarning shubhasiz bajarilishini ko'zda tutadi. Intizom darajasi ko'p jihatdan boshqaruv madaniyatini belgilaydi.

Ta'limni boshqarishdagi muammolar ko'p qirrali bo'lsa-da, zamonaviy texnologiyalar va global hamkorlik ularni engish imkoniyatlarini yaratadi. O'zbekiston uchun muhim qadamlar-raqamlashtirishni jadallashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirishga qaratilgan loyihalarni kengaytirish va xalqaro tajribalarni mahalliyashtirishdir. Kelajakda ta'lim siyosatini faqat qisqa muddatli emas, balki uzoq muddatli strategiyalar asosida shakllantirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva Dono Razzaqovna, Abdullayeva Masuda Abdubannaevna, Jumasheva Gulnara Xamidullaevna. Maktabgacha ta'limni boshqarishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2020. -B.75.

2. Н.Ф.Ткач. Стратегическое управление в образовании: Учебное пособие для управленческих кадров / Н.Ф. Ткач, С.В. Шишов - Мурманск; Хельсинки: НИЦ "Пазори", 2000.

3. И.Н. Герчикова. Менеджмент: Учебник. – 4-йе изд., перераб. и доп. –М.: ЮнитиДана, 2009.

4. В.П. Симонов. Педагогический менеджмент: Ноу-хау в образовании: учебное пособие / В.П. Симонов. - М., Высшее образование, 2007. - 357 с.

5. Ю.В.Полякова. Корпоративная культура как инструмент повышения эффективности деятельности организации [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.msnauka.com/14_NPRT_2010/Economics/66548.doc.htm

6. О.С.Виханский, А.И. Наумов Менеджмент: Учебник для вузов по эконб. спес. и направл. – Третье изде. – М.: Гардарика, 2008. –С.214.

7. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятий: Сравнительный словарь на русском и немецком языке / Авторы-издатели: О. Грауман, Р.В. Кек, М.Н. Певзнер, А.Г. Ширин. - Хильдесхайм, Германия, 2004.

8. Э.Ф. Зеер, Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. - М.: МПСИ, 2005.-216 с.

9. М. Sharifxo'jaev., Q.Abdullaev. Menejment. Daslik. - Т.: O'qituvchi, 2001.- В.43.

10. Л.В.Пергудов, М.Х.Саидов. Менеджмент экономика высшего образования. - Т.: Молия, 2001.-В.65.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
2-son

Nashr qilingan sana: 27.02.2025.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172